# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 454 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**

**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant
Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent
Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi
Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktarant
Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant
Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD
Turizm rivozhlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqochi
Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**
Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatini iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.
Davlat xaridlarini takomillashtirishda budjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning moxiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi
Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi
Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqodchi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Korxonaning starategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Joʻrayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatining aniqlashni nazariy uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ... 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o‘qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ... 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko‘rsatkichlari ... 242
**Berdiyev Akram O‘ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ... 263
**G‘aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma’muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo‘llari ... 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o‘g‘li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo‘rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqodchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ........ 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To‘rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей
и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko‘chmas mulkni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning
ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yullari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta’lim islohotlarining ma’naviyatdagi o‘rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O‘zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O‘ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma’rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va
Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для
содействия устойчивому экономическому росту в
Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo‘llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqodchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# BANK TIZIMI BARQARORLIGINI OSHIRISHDA KREDIT RISKLARINING AHAMIYATI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich**
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent moliya institutining “Bank ishi” kafedrasi kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirish va uning amaliy holati, kredit risklarining paydo bo‘lish sabablari va oqibatlari, kredit risklarini kamaytirish usullari, mamlakatimiz tijorat banklarining kredit faoliyatining joriy holati, muammoli kreditlar bilan bog‘liq holatlar tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kredit risklarini oldini olishning ahamiyati, muammoli kreditlarni kamaytirish, bank kredit portfelining sifatini oshirish, kredit risklarini kamaytirish bo‘yicha takliflar va ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: kredit riski, risklilik darajasi, diversifikatsiya, kredit qo‘yilmalari, bank kreditlari, muammoli kreditlar, zaxiralar, kredit ta’minoti, kredit siyosati.

Abstract: The article analyzes the formation of a credit portfolio in commercial banks and its practical situation, the causes and consequences of the appearance of credit risks, methods of reducing credit risks, the current state of credit activity of commercial banks of our country, situations related to problematic loans, and relevant conclusions and proposals are made.

Also, proposals and scientific conclusions on the importance of preventing credit risks in ensuring the financial stability of banks, reducing problem loans, improving the quality of the bank's loan portfolio, and reducing credit risks have been formulated.

Key words: credit risk, risk level, diversification, credit investments, bank loans, problem loans, reserves, credit provision, credit policy.

Аннотация: В статье анализируются формирование кредитного портфеля в коммерческих банках и его практическая ситуация, причины и последствия появления кредитных рисков, методы снижения кредитных рисков, современное состояние кредитной деятельности коммерческих банков нашей страны, ситуации, связанные с проблемным кредитам, сделаны соответствующие выводы и предложения.

Также сформулированы предложения и научные выводы о важности предотвращения кредитных рисков в обеспечении финансовой устойчивости банков, снижении проблемных кредитов, повышении качества кредитного портфеля банка, снижении кредитных рисков.

Ключевые слова: кредитный риск, уровень риска, диверсификация, кредитные вложения, банковские кредиты, проблемные кредиты, резервы, кредитное обеспечение, кредитная политика.

## KIRISH

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida “...kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash”[1] ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.

Bugungi kunda bank muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, mijozlarga bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini yanada oshirish va ularning zamonaviy turlarini joriy etish, kredit axboroti tizimini takomillashtirish va nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatimizning iqtisodiy sohalarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochmoqda. Bu jarayonlarni yanada mustahkamlash respublikamiz tijorat banklarining risklarini to‘g‘ri baholash va samarali boshqarish rolini imkoniyat darajasida oshirishni taqozo etadi.

Ayni vaqtda, respublikamizda tijorat banklarining kredit risklarini boshqarishda o‘z yechimini topmagan muammolar talaygina. Masalan, respublikamizning qator tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi muammosi shular jumlasidandir. Bank kreditlarining asosiy qismi joylashtirilgan tarmoqda yuz beradigan har qanday salbiy holat muddati o‘tgan kreditlar hajmining keskin o‘sishiga olib keladi. Mamlakatimizdagi tijorat banklarining kredit portfeli va uning tarkibi tahlil qilinganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, aksariyat tijorat banklarida kreditlarning katta qismi bitta tarmoqka mansub bo‘lgan korxonalarda to‘plangan. Bu esa, ularning kredit risklarini baholash va boshqarish tizimi samaradorligi darajasini past ekanligidan dalolat beradi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riski va uni baholash masalalari qator iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, Amerikalik olimlar R. L. Miller va Devid Van-Xuzlar kredit riski deganda, karzdorning kreditorga ssudani to‘liq qaytarib berish jarayonida qarzdorda ayrim muammolarning paydo bo‘lishi bilan bog‘lashadi.[4] Olimlar aynan qaysi omillar ekanligiga izoh berishmaydi. Fikrimizcha, omillarni guruhlarga ajratgan holda va ta’sir darajasiga ko‘ra izohlash maqsadga muvofiq bo‘lardi.

G. N. Beloglazova “Kredit riski deganda belgilangan muddatlarda kontragentlardan biri shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatni bajarmasligi oqibatida zarar ko‘rish ehtimolidir” deya ta’riflaydi.[2] Olimning fikriga ko‘ra, kredit risklari paydo bo‘lishida uning muddati birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

L. P. Kroliveskoy “kredit riski qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko‘rsatilgan majburiyatni to‘liq yoki qisman bajarmasligi oqibatida paydo bo‘ladi” degan fikrni berib o‘tgan.[3] Muallifning fikriga qo‘shimcha sifatida kredit munosabatlaridagi tashqi omillarni ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Sh. Z. Abdullayeva kredit riski tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Kredit riski deb, karz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomalarda ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi”.[5] Muallifning fikrini inkor etmagan holda kredit ta’minoti sifatining yomonlashishi ham kredit riskini keltirib chiqarishini qo‘shimcha qilish mumkin. ShUningdek, professor Sh. Abdullayeva tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo‘li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin, deb hisoblaydi.[8] Muallif kredit riskini pasaytirishda samarali tashkil etilgan risklarni boshqarish tizimiga alohida urg‘u bergan.

Professor V. Usoskin o‘zining mijozni bank tomonidan kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash orqali kredit riski darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkin, degan xulosaga keldi.[6] Muallifning fikriga ko‘shimcha sifatida aytish mumkinki, mazkur taklif odatda moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgan mijozlarga nisbatan qo‘llanilishi ijobiy ta’sir qiladi.

D. Polfreman, F. Fordlar mijozning kredit yig‘ma jildini o‘rganishga e’tiborni kuchaytirish orqali banklar faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirishni taklif qilingan.[7] Mualliflar mijozni kredit tarixini o‘rganish orqali kredit riskini kamaytirishni yoqlab chiqishgan.

D. Saidov tijorat banklarining kredit riski darajasini pasaytirishda tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish orqali, ya’ni tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqqa mansub bo‘lgan korxonalarda to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik lozimligi bo‘yicha tavsiya bergan.[9] Ammo rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega, ixtisoslashgan banklarda buning imkoni yo‘q.

N. Jiyanovaning xulosasiga ko‘ra, tijorat banki suzib yuruvchi foiz stavkalarida jalb qilingan resurslarini imkon qadar suzib yuruvchi foiz stavkalaridagi aktivlarga joylashtirishi kerak. Faqat ana shu yo‘l bilan bankning spred va marjasi darajasini foiz stavkalari tebranishining salbiy ta’siridan saqlab qolish mumkin.[10] Muallifning taklifi biroz munozarali bo‘lib, banklarda jalb etilgan va joylashtirilgan resurslarning hajmini bir xil muddat va summada joylashtirishning deyarli imkoni yo‘q.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni minimallashtirish, shuningdek kredit operatsiyalarining sifatini oshirish tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biridir. Banklar faoliyatidagi kredit riski yoki qarzning qaytmaslik riski - bu qarz oluvchi (mijozlar) tomonidan kredit shartnomasi shartlarining to‘la yoki qisman darajada bajarilmasligi va shu orqali banklarning ma’lum miqdorda xarajatlar qilishi yoki zarar ko‘rishi demakdir.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o'z vazifa hamda majburiyatlarii qay darajada bajarishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash kredit taqdim etuvchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Kredit beruvchi bank qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, ishlab chiqarish imkoniyati, marketingi, moliyaviy boshqaruvini qay darajada bilishi, kreditga bo'lgan talabning qanchalik darajada to'g'ri asoslanganligi va kreditning maqsadi bank uchun to'g'ri kelishini aniqlab olishi lozim.

1-jadval: Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi[2]

| Ko'rsatkichlar nomi | 01.01.2021-y. | | 01.01.2022-y. | | 01.01.2023-y. | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so'm | ulushi, foizda | mlrd. so'm | ulushi, foizda | mlrd. so'm | ulushi, foizda |
| Jami kreditlar | 276 975 | 100 | 326 386 | 100 | 390 049 | 100 |
| Sanoat | 102 162 | 36,9 | 117 639 | 36,0 | 126 647 | 32,5 |
| Qishloq xo'jaligi | 28 081 | 10,1 | 35 022 | 10,7 | 42 096 | 10,8 |
| Qurilish sohasi | 7 380 | 2,7 | 9 282 | 2,8 | 10 400 | 2,7 |
| Savdo va umumiy xizmat | 19 916 | 7,2 | 27 406 | 8,4 | 28 911 | 7,4 |
| Transport va kommunikatsiya | 26 626 | 9,6 | 28 708 | 8,8 | 29 673 | 7,6 |
| Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish | 3 962 | 1,4 | 3 814 | 1,2 | 3 856 | 1,0 |
| Uy-joy kommunal xizmati | 3 759 | 1,4 | 2 284 | 0,7 | 1 888 | 0,5 |
| Jismoniy shaxslar | 54 888 | 19,8 | 69 496 | 21,3 | 100 949 | 25,9 |
| Boshqa sohalar | 30 201 | 10,9 | 32 734 | 10,0 | 45 630 | 11,7 |

Mamlakatimiz tijorat banklarining kredit qo'yilmalarini tarmoqlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, sanoat tarmog'iga ajratilgan kreditlar oxirgi yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lsada, umumiy holatda yetakchilik qilmoqda. Oxirgi uch yilda uning ulushi 4,4 foiz bandga pasaygan va 2023-yil boshiga 32,5 foizni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning summasi 83,8 foizga, jamiga nisbatan ulushi esa 6,1 foiz bandga o'sishni qayd etgan va 54,9 trln so'mdan 100,9 so'mga qadar oshgan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligiga ajratilgan kreditlar tahlil etilayotgan davrda o'rtacha 10 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, bank tizimi kredit qo'yilmalarining tarmoqlar kesimidagi diversifikatsiyasi oxirgi yillarda biroz yaxshilanganligiga qaramasdan, yuqori riskli va zaif hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit porfelining samaradorlik darajasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ini o'zgarishi hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida bu ko'rsatkichning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mo'tadil darajasi 3 foizni tashkil qiladi.

2-jadval: Tijorat banklari kredit qo'yilmalari va muammoli kreditlar ulushi[3]

| Sana | Kreditlar, mlrd so'mda | | | Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so'mda | | | Muammoli kreditlarning jami | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | shundan: | | Jami | shundan: | | Jami | shundan: | |
| | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar |
| 01.01.2021 | 276974,8 | 244483,9 | 32490,9 | 5784,80 | 5167,60 | 617,2 | 2,1 | 2,1 | 1,9 |
| 01.01.2022 | 326385,6 | 280073,6 | 46311,9 | 16974,00 | 15068,80 | 1905,2 | 5,2 | 5,4 | 4,1 |
| 01.01.2023 | 390048,9 | 324680,8 | 65368,2 | 13992,40 | 12643,30 | 1349,1 | 3,6 | 3,9 | 2,1 |

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmi yil sayin oshib bormoqda. Xususan, so'nggi uch yilda 40,8 foizga oshib, 2023-yil yanvar holatiga 390 trln so'mdan otiqni tashkil etdi.

Berilgan kreditlarning aksariyat katta qismi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, 2021-yilda 88,3 foiz, 2021-yilda 85,8 foiz va 2023-yilda 83,2 foizni tashkil etmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari ulushining pasayishi bank tizimi uchun ijobiy holat hisoblanib, buni boshqa banklar tomonidan berilgan kreditlarning ortganligi bilan izohlash mumkin.

O'z navbatida, muammoli kreditlar 2,5 martaga oshgan, 2021-yilda 5,8 trln so'mdan 2023-yilda 13,9 trln so'mga qadar ko'tarilgan. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2022-yilda 5,2 foizga yetib, eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Buning asosiy sababi, 2021-yilda ro'y bergan pandemiya bo'lib, kredit oluvchilarga kredit va foizlarni qaytarishda imtiyoz berilishi (to'lov muddatini kechiktirilishi) hisoblanadi.

Ko'rilgan choralar natijasida, muammoli kreditlar ulushini 2022-yilda 1,6 foiz bandga yoki 2023-yil 1-yanvar holatiga 3,6 foizgacha (14 trln so'm) kamayishiga erishildi.

Muammoli kreditlarning asosiy qismi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar - bu muammoli kreditlar shakliga kirgan qo'yilmalardir. Substandart va undan past tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar toifasiga kiradi.

Kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligini va shu sababli muammoli ssudaning yuzaga kelishini quyidagi belgilar orqali bilish mumkin:

- qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda balansning takdim etilmasligi;
- debitorlik qarzning birdaniga o'sib ketishi;
- qisqa muddatli aktivlar ulushining kamayishi;
- qiska muddatli kreditorlik qarzlarning noproporsional o'sishi;
- likvidlik koeffitsiyentining pasayishi;
- aktivlar tarkibida asosiy kapital ulushining oshishi;
- savdo hajmining pasayishi;
- muddati o'tgan qarzlarning o'sishi;
- operatsion faoliyatdan ko'rilgan zararlarning paydo bo'lishi.

3-jadval: Tijorat banklari kredit qo'yilmalari va muammoli kreditlar ulushi[4]

| Sana | Muammoli kreditlar (NPL) | | | Muammoli kreditlardagi ulushi, foizda | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | shundan: | | Jami | shundan: | |
| | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar |
| 01.01.2021 | 5 784,80 | 5 167,60 | 617,2 | 100 | 89,3 | 10,7 |
| 01.01.2022 | 16 974,00 | 15 068,80 | 1 905,20 | 100 | 88,8 | 11,2 |
| 01.01.2023 | 13 992,40 | 12 643,30 | 1 349,10 | 100 | 90,4 | 9,6 |

Mamlakatimiz bank tizimidagi muammoli kreditlarning 90 foizga yaqini davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, 2021-yilda 89,3 foiz bo'lsa, 2022-yilga kelib 90,4 foizga oshgan. boshqa banklarning ulushi esa 10 foiz atrofida shakllangan. Xulosa qilishimiz mumkin, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida kredit risklari juda baland va kredit risklarini boshqarish tizimi samaradorligi nisbatan past.

Markaziy bank tomonidan oxirgi yillarda yuzaga kelgan tashqi iqtisodiy vaziyatning banklar barqarorligiga salbiy moliyaviy ta'sirlarini yumshatish hamda banklarda mavjud kredit riskini keskin kuchaytirishini oldini olish bo'yicha prudensial nazorat choralari ko'rib borildi.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY




1-rasm: Tijorat banklarida kredit riski ulushi[5], 2023-yil boshiga foizda

Bank tizimida eng yuqori kredit riski 5-guruh, ya'ni risk darajasi 100 foiz bo'lgan kredit risklariga to'g'ri kelmoqda. Uning ulushi 2023-yil boshiga 52,3 foizni tashkil etgan. Bunga deyarli barcha kreditlar va investitsiyalar kiritilgan.

1-guruh (0 foizli) riskli aktivlarning ulushi 23,1 foiz bo'lib, asosan naqd pullar, Markaziy bankdagi mablag'lardan iborat. 2-guruh (20 foizli) riskli aktivlarning ulushi 8,9 foizni tashkil etgan.

## XULOSA

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar va tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- tijorat banklari faoliyati, ayniqsa kreditlash jarayoni risk bilan bog'lik. Shu sababli banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda kredit portfelini oqilona boshqarish muhim o'rin tutadi;
- kredit risklarini to'g'ri boshqarmaslik bankning kredit portfeli sifatining pasayishiga, bank daromadlarining kamayishiga, bankning rentabelligini tushishiga olib keladi;
- mamlakatimiz bank tizimida muammoli kreditlarning 90 foizi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Boshqa banklarda esa 10 foiz atrofida bo'lib, kredit riskini samarali boshqarish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.
- muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida, muammoli kreditlarni: muddati, sifati, ta'minoti, resurs manbasi va kreditni berish to'g'risidagi qarorni qabul qiluvchi sub'ekti kabi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Muammoli kreditlarni yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash ularni bartaraf etish uchun ishlarni to'g'ri va samarali rejalashtirishga yordam beradi. Bank amaliyoti ko'rsatishicha, kreditni qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kredit bo'yicha undiruvni nimaga qaratish lozimligini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Kredit riski yuzaga kelganda o'tkazish zarur bo'lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

Kredit limitini belgilash. Bankning kredit siyosatida kreditlashga nisbatan aniq limit o'rnatish va unga qat'iy amal qilish lozim.

Qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini doimiy tarzda takomillashtirib borish, jahonda keng qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

Kredit riskini kamaytirishning yangi va samarali usullarini bank amaliyotiga jalb etish, xususan, kredit ta'minotiga qo'yilgan talablarni baholash usullarini takomillashtirish.

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Kredit riskini oldini olishda kredit portfeli diversifikatsiya darajasini oshirish. Kredit portfelini mijozlar kesimida, kredit valyutalari kesimida, tarmoqlar kesimida, hududlar kesimida asoslangan diversifikatsiyani olib borish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.
2. Банковскоэ дело: учебник. / Г.Н. Белоглазова. - Москва: Финансы и статистика, 2006.
3. Банковскоэ дело. Л.П.Кроливеской. - СПб.: Питер, 2004
4. Р.Л.Миллер Девид Ван-Хуз “Современные денги и банковскоэ дело”
5. Sh. Abdullayeva “Bank risklari va kreditlash”
6. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и оператсии.-Москва:ВАЗАР-ФЕРРО”, 1994.-s.189.
7. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. Пер. с англ.–М.:ИФРА-М, 1996.- S.489-490.
8. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.– T.: Moliya, 2002 y.– 304 b.
9. Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari.
10. Jiyanova N.E. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini samarali boshqarish yo‘nalishlari. . I.f.n. ilm. dar. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 16-17.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma’lumotlari

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi 26-uy.